

“Trastbank” xususiy aksiyadorlik banki Boshqaruv Raisi
S.R. Normuxamedovning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati

Qadrli hamkasblar, hurmatli mijozlar!

“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, qolaversa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bu boradagi bir qator Farmon va qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankida ham chora-tadbirlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, ushbu yo‘nalishda moliya muassasasida zamonaviy amaliyot hamda xalqaro standartlar talablari qo‘llanilmoqda.

Bilamizki, korrupsiya eng dolzarb muammolardan sanalib, jiddiy ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi hamda tashkilotlar faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, rivojlanishga to‘sqinlik qiladi. Shu jihatdan, Bankimizda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. Bu borada muntazam ravishda seminar-treninglar, texnik-o‘quv kurslari tashkil etilib, xodimlarning bilim va ko‘nikmalari boyitib borilmoqda. Qolaversa, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati ishlab chiqilgan bo‘lib, unda korrupsion harakatlar va ular haqida xabar berish mexanizmi, korrupsiyaning oldini olish choralari hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarlik uchun javobgarlik belgilangan. Shuningdek, www.trastbank.uz rasmiy veb-saytimiz orqali Komplaens ofitseriga murojaat qilishi tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, “Trastbank” xususiy aksiyadorlik bankini “Korrupsiyadan holi” qilish bo‘yicha 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ning ijrosi yuzasidan Bank Boshqaruvining 2025-yil 3-iyuldagi qaroriga asosan, bank tizimida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha tarkibiy tuzilmalarga tegishli vazifalar yuklatilgan. Xususan, barcha xodimlar o‘z xizmat vazifalarini halol, vijdonan, professional darajada va vakolatlaridan chetga chiqmagan holda bajarishi, har qanday vaziyatda o‘z sha‘ni va qadr-qimmatini saqlashi, odob-axloq, kasb etikasi qoidalariga rioya qilishi, tizimli kamchiliklarning bartaraf etilishi, imtiyozli kreditlar ajratilishida inson omilini cheklash hamda bu borada raqamlashtirish jarayonini jadallashtirish yuzasidan barcha zaruriy choralarni ko‘rish lozimligi qayd etilgan.

Ta‘kidlash joizki, Bank tomonidan “ISO 37001” xalqaro standartlari talablari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi joriy etilgan hamda mazkur tizim samaradorligi muntazam ravishda baholanib borilmoqda. O‘z navbatida, bu reyting agentliklari tomonidan yuqori baholanib, alohida e‘tirof etilmoqda. Albatta, ushbu sa‘y-harakatlarning samarasi o‘laroq, “Trastbank” XAB O‘zbekistonda bank tizimida birinchi bo‘lib “ISO 37001:2016” xalqaro standartiga muvofiqligini

tasdiqlovchi xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritdi. Bu esa mijozlar va biznes hamkorlar ishonchini oqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biz har qanday korrupsiyaviy holatni qoralaymiz, halol va shaffof ish tarafdorimiz. Keling, Ona yurtimiz ravnaqi, bankimiz rivojlanishi, qolaversa, farzandlarimiz kelajagi uchun ushbu illatga qarshi birga kurashaylik.